

---

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 20-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
8-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
20-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-8**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
20-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-8**

ТОШКЕНТ-2020

---

АДАБИЁТ

1. Hikoyat Samiyeva, Muattar Samadova ERKIN VOHIDOV UJDI - O'ZBEK ADABIYOTNING GULTOLI.....	7
2. Ниязова Моҳичеҳра Хайтовна ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕКЛАРЛАРДА ТЎЙ МАРОСИМЛАРИ ОЛҚИШИ.....	9
3. Abdullayeva Fayyoz Mashrab qizi, Xolboboyeva E'zoza Turg'un qizi ADABIY TAŠAVVUR QUDRATI YOXUD GAR BADIYAT YOG'DULANSA.....	11
4. Ochilova Nilufar O'limasovna ANNA SYUVELNING "BLACK BEAUTY" (MAFTUNKOR QORA TULPOR)IDA "OT" OBRAZI.....	13
5. Shonayeva Nilufar ADABIYOT DARSLARINI SAMARASINI OSHIRISHDA KOGNITIV VA AFFEKTIV YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH.....	16
6. Kaydarova Zuhayyo Tursinovna TIL — VATAN KABI ULUG' QADRIYAT. TILIMIZNI ASRAYLIK!.....	18
7. Abdumalikova Erkinoy Mahmudjonovna ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHINING UJDIY FAOLIYATINI O'STIRISH.....	20
8. Allazarova Mohira Bakhtiyor kizi A GREAT TREASURE LEFT FROM THE GREAT.....	22
9. Raxmonova Marg'uba Karimovna MUMTOZ ADABIY ASARLARNI O'RGANISHDA IFODALI O'QISH.....	25
10. Toshboyeva Gulruh Abdulahayevna ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUV.....	26
11. Uralova Unsinoiy Mamataliyevna JAHON OTIN UVAYSIIY-BUYK O'ZBEK AYOLI.....	28

## ANNA SYUVELNING "BLACK BEAUTY" (MAFTUNKOR QORA TULPOR)IDA "OT" OBRAZI

*Ochilova Nilufar O'limasovna*  
*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*  
*Telefon: (90) 340 55 45*  
*nilu.2018@inbox.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 19-asr ingliz adabiyoti namoyondasi Anna Syuvelning tulporlarga bag'ishlangan "Maftunkor Qora Tulpor" - "Black Beauty" nomli asaridagi ot obrazi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Ot obrazi, troya oti, go'zallik, maftunkor, timsol, tuyoq, qulun, Pet, Darki, toy, taqa.

Biz otlar haqida ko'p gapiramiz, ularni ta'rifiyaymiz, yozuvchilar ular haqida ko'pgina asarlar yozadilar, shoirlar esa ularga bag'ishlab she'rlar bitadi. Otlar to'g'risida qancha izlansak ham, gapirsak ham bu sirlı jonivorlar haqidagi suhbatlarning nihoyasi yo'q. Chunki ilm - cheksizdir, cheksizlik esa bizni yanada ilm olishga undaydi.

Hayotimizda otlning naqadar muhim ahamiyatga ega bo'lganligi haqida ko'p gapiramiz va shu ahamiyatlik adabiyotga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Jahon adabiyotida "ot" obrazini birinchilardan bo'lib Gomerning "Odyssey" asarida uchratishimiz mumkin. Unga ko'ra, ot haqidagi ilk tasavvurlar Troya oti bo'lib namoyon bo'ladi. Troya oti - yunon rivoyatlariga ko'ra, yog'ochdan ishlangan ulkan ot, uning ichiga yashirinib olgan yunonlarning sara askarlari Troya shahriga kiradi. Troyaliklar yunonlarning bu hiylasidan g'afatda qolishadi va shahar devori oldida turgan otni shaharga olib kirishadi. Tunda yunonlar otlning ichidan chiqib qal'a darvozasini ochadi va qolgan qo'shinning shaharga kirishiga imkon beradi. Shu voqeadan keyin troyaliklar uchun ot salbiy obrazni uyg'otadi va "Troya oti" iborasi paydo bo'ladi. Uning majoziy ma'nosi - dushmani halok etish maqsadida, unga tuhfa berish degan ma'noni anglatadi. [2]

Biroq, boshqa asarlarda "ot" obrazi ma'nosi aksincha, ozodlik, hurlik timsolidir. Xususan, 19-asrning ingliz adabiyotining yorqin namoyondasi - Anna Syuvelning "Black Beauty" ("Maftunkor Qora Tulpor") asarida ot haqida muallif o'zgacha yondashuv qiladi. Agar asar inson tilidan yozilgan bo'lsa, hayratlanarli emas, biz kitobxonlar uchun bu tabiiy hol, ammo jonivor tilidan yozilgan asar sizni o'zga olamga kiritishiga shubha yo'qdir. Chunki biz inson ruhiyatini, ichki dunyosini qaysidir ma'noda, his qila olib tushunamiz, lekin jonivor tilidan asarni "dunyoga keltirish" bu muallifdan ko'p izlanishlar talab etadi. Muallif jonivorning nafaqat biologik jihatlarini o'rganib chiqishi, balki ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, harakatlari kabi holatlariga e'tibor berishini taqozo etadi. Muallif ushbu o'zgacha uslubda ijod qilishi uchun kitobxon yuragiga kirib borishi va asar o'qilayotganda, o'quvchi his qilib o'qishini inobatga olish lozim. Anna Syuvel ana shu bosqichlardan o'tgan, asarning muvaffaqiyatli chiqishiga bor imkoni ishga solgan mohir yozuvchidir. Anna Syuvel otlarga yoshligidanoq mehr qo'ydi va mana shu mehr uni ot haqida asar yozishga undadi. 1871 yilda "Black Beauty" asarini yozishni boshlab, 1877 yilda asarni nihoyasiga yetkazadi. Asar o'sha davmi o'zidayoq, mashhurlikka erishadi. Asarning bosh g'oyasi insonlarni jonivorlarga mehribon bo'lishga va ularni asrab - avaylashga undaydi. Yozuvchining o'zi shunday deydi: "We call them dumb animals, and so they are for they cannot tell us how they feel, but they do not suffer less because they have no words." "Garchi jonivorlarning zaboni bo'lmasa-da, hissiyotlari haqida so'zlay olmasa-da, bu ular azob chekmaydi degani emas."

Darhaqiqat, Alloh jonivorlarga gapirish qobiliyatini bermagan bo'lsa-da, jonivorlar insonlardan ko'ra farosatliroq ekanligini isbotlovchi hayotiy dalil bor. Ayniqsa, otlar boshqa jonivorlarga nisbatan sezgir va epchildir. "Black Beauty" asarida ham bir tulporning tug'ilgan kunidan boshlab, boshidan kechirganlari haqida hikoya qilinadi. Bosh qahramon Darki - maftunkor qora tulpor o'zining ismini qo'yilishi haqida shunday deydi: "Well, old Pet! How is your Darkie?" I was a dull black, so he called me Darkie" [1, 3].

"Xo'sh, qariya Pet! O'g'ling Darki yaxshimi?" Men tim qora rangda bo'lganim uchun xo'jayinim meni Darki deb chaqirardi."

Dark - ingliz tilida qorong'u degan ma'noni bildiradi, asar qahramonining terisi qora rangda

bo'lgani uchun shunday nom bilan atalgan va shu bilan birgalikda, yozuvchi tulporning terisi mafunkor va chiroyli yaltiragani uchun ham *beauty- go'zallik* so'zini qo'shgan. Asarda ot bir necha xo'jayinlar qo'lida yashaydi, xo'jayinlar ham xar xil, ish ham har xil bo'ladi. Boshida ajoyib insonlar qo'lga tushadi, yoshligidan qiyinchilik ko'rmaydi. Darkini ilk sohib va sohibasi ajoyib insonlar bo'lishadi. Darki qulunlik paytida onasi uni tartibga chiqirib turgan. Keyinchalik sudan o't yeyishga o'tganida, o'zi tenggi qulunlar, toylar bilan o'ynashni boshlaydi. Darki yashaydigan dalada otlarning har xili bo'lgan. Masalan, aravakash otlar ham dalada kun kechirardi. Lekin Darkining onasi (Pet) unga aravakash otlar bilan o'ynashga ruxsat bermagan, sababi Darkining ajdodlari turli xi ot poygalarida ishtirok etib, g'olib otlar bo'lgan. "One day when there was a good deal of kicking, my mother whinnied to me to come to her, and then she said: "I wish you to pay attention to what I am going to say to you. The colts who live here are very good colts, but they are cart-horse colts, and of course they have not learned good manners. You have been well bred and well born; your father has great name in these parts, and your grandfather twice won the Cup at the Newmarket races; your grandmother had the sweetest temper of any horse I ever knew, and I think you have never seen me kick or bite" [1, 2].

Bir kuni dalada kim "yaxshi tepadi" o'ynini o'ynayotganimizda, oyim meni chaqirib oldi va dedi: "hozir senga aytmoqchi bo'lgan gaplaringa e'tibor qilishingni istardim. Bu dalada yashayotgan toychoqlar yaxshi toylar, albatta, ammo ular arava, yuk tashuvchi toylardir va ularga o'zlarini qanday tutish kerakligi haqida o'rgatilmaydi. Sening esa yo'rig'ing boshqa. Seni otang oliyjanob bo'lgan, bobong esa ikki karra Newmarket musobaqasida g'oliblikni qo'lga kiritgan, buving esa men bilgan biyalar orasida eng mafunkori bo'lgan va o'ylaymanki, sen ham meni hech tepganimni va tishlaganimni ko'rmagansan."

Asardan ko'rinib turibdiki, Darki poygachi va oliy irq zotdor ot bo'lgan. Darki yaxshi tarbiya ko'rib, ulg'ayadi. Vaqt o'tishi bilan Darki to'rt yoshga to'lganida, uni boshqa oliyjanob xo'jayinga berishadi. "My master would not sell me till I was four years old; he said lads ought not to work like men, and colts ought not to work like horses till they were quite grown up." [1,16]

Men to'rt yoshga kirganimcha ilk xo'jayinim meni sotmadi; sababi inson bolasi toki erkak bo'lmas ekan, ishlashga yaramaydi, toy ham toki o'smir yoshiga yetmas ekan, ishlash haqida gap bo'lishi mumkin emas, (xo'jayinimning fikri shunday.)

Darki ilk xo'jayining g'amxo'riligini umri davomida xotirasida saqlaydi, ayniqsa, hayotida qora kunlar boshlanganida, yoshlik damlariga qaytgisi kelaveradi.

Taqdir taqozosi bilan Darkini sotishga majbur bo'lishadi va hammasi shu kundan boshlanadi. Uning yangi xo'jayini doim chiroyli bo'lib ko'rinishi uchun otning boshini doim baland qilib tortiradi. Sababi shunday qilsa, oqsuyaklarning obro'si yanada osharkan, garchi otlarga bu yoqmasligini va otlar yurishga qiynalishini bilishsa-da, yangi xo'jayinlari otning boshini doim arqon bilan tortirib turadi. Darki tarbiyasi va sabrli bo'lgani uchun bu holatga ko'nikadi. Lekin yangi xo'jayinlari uning taqasiga aslo e'tibor berishmaydi va vaqti kelib taqasi juda halokati tushib qoladi.

"If Smith had been in his right senses he would have been sensible of something wrong in my pace; but he was too madly drunk to notice anything. Beyond the turnpike was a long piece of road, upon which some fresh stones had just been laid – large, sharp stones, over which no horse could be driven quickly without risk of danger. Over this road, with one shoe gone, I was forced to gallop at my utmost speed, my rider meanwhile cutting into me with his whip, and with wild curses urging me to go still faster. Of course my shoeless foot suffered dreadfully; the hoof was broken and split down to the quick, and the inside was terribly cut by the sharpness of the stones." [1,81]

Agar Smit mening tuyog'imga e'tibor qilganida, u meni minmasdi, biroq mastligi sabab hech nimani sezmasdi ham. Katta magistraldan uzoqroqda yo'l bor, buy o'l katta, o'tkir qirrali toshlar bilan to'la edi, bu yo'ldan otda yurish xatarli. Aynan shu yo'ldan bir taqasiz tuyog'im bilan Smit meni tez yugurishga niqtardi, har safar qumchilaganida (umida qamchi yemagan), jahl ustida tezlikni oshirib borardim va nihoyat dahshatli og'riqdan tuyog'im sindi.

Darkining tuyog'i shu voqeadan keyin yugura olmaydigan bo'lib qoladi hamda egalari uni endi hech nimaga yaramaydi deb sotib yuborishadi. Asar so'nggida Darkini Jo – eng yaqin do'sti juda achinarli holda topib oladi. Jo Darkiga umrining oxirigacha g'amxo'rlik qiladi. Ana shu yorug' kunlarga kelguncha Darki ko'p zahmatlar chekadi. Darkining o'zi shunday deydi:

"My troubles are all over and I am at home; and often before I am quite awake, I fancy I am



still in the orchard at Birtwick, standing with my friends under the apple trees." [1. 156]

Mening azoblarim barham topdi va nihoyat men o'z uyimdaman. Men tez-tez o'zimni hali ham Bertvik bog'ida, do'stlarim bilan birgalikda, olma daraxti ostida tassavur qilaman.

Xulosa qilib aytganda, otlar ham sezishadi, his qilishadi. Faqatgina biz insonlar ularni tushuna bilishimiz, ularga g'amxo'r bo'lishimiz lozim. Jonivorlar tabiatning bizga yuborgan tuhfasidir. Ularni asrab-avaylash esa o'z qo'limizdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. A.Suveil. Black Beauty.2000 yil. [156 bet]
2. elib.book.com